

Nadir Muhammad davrida Ashtarxoniylar sulolasi tanazzuli sabablari.

Jo'arakulova Mukambar Tursunmurod qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

talabasi (Denov O'zbekiston)

Tel: +998915120809

E-mail: mukambarjurakulova@dtpi.uz

УДК: 9(93)(93/94)

Anatatsiya. Ushbu tadqiqot mavzusining ahamiyati shundaki, Ashtarxoniylar sulolasi vakili Nadir Muhammad va uning faoliyati natijalari tarixiy siyosiy faoliyati obektiv yoritishga qaratilgan. XVII - asr va XVIII - asrning birinchi yarmida Buxoro xonligining ichki siyosiy hayotidagi o'zgarishlarga sabab bo'lgan voqea hodisalar feodallarning o'zaro janjallari, saroy fitnalari, hukmdorlarining axloqsiz va shafqatsiz harakatlari, xalqning og'ir moddiy ahvoli, ularning feodal ekspluatatsiyasi va chidab bo'lmas zulmga qarshi noroziligi, ortishi va hokazo sabablar obektiv va subektiv omillarga ko'ra tahliliy yoritiladi. Ushbu maqola orqali Ashtarxoniylar sulolasining tanazzuliga sabab bo'lgan hukmdor Nadir Muhammad o'tmishiga oid har xil voqea-hodisalarning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi kabilarni xolisona va haqqoniy o'rganishga qaratilgan.\

Bu borada Nadir Muhammad tarixi Ashtarxoniylar tarixining ajralmas qismi bo'lib, alohida o'rganishga molik hisoblanadi. Chunki xon davlat ishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydigan zodagonlar bilan yaqinlashib, ular bilan til topisha olmadi. O'z hukmronligini mustahkamlash uchun yer mulklarini yaqinlariga sovg'a qilgan Nodir Muhammad mamlakatda yer mulk egaligi munosabatlarini izdan chiqardi.

Kirish. Buxoro xonligida 150-yilcha hukmronlik qilgan ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik osoyishtalik bo'lmadi. Viloyatlarda hukmronlik qiluvchi Amr va beklarning o'z boshimchaligi, markaziy hokimyatdagi amaldorlar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ur-yiqitlar mamlakat tinkasini quritib bordi. Hatto Ashtarxoniylar sulolasidan Buxoro taxtiga

ko'tarilgan o'n nafar xondan ikki nafarining taxtdan ag'darilgani to'rttasining esa taxt ustida o'ldirilishi ham yaqqol ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi; Ashtarxoniy hukmdor Nodir Muhammad davrida ham vaziyat yanada yomonlashdi. Xususan, saroydagi lavozimlardan ozod etilgan amaldorlarning noroziligi kuchayib turgan bir paytda, mamlakat hududlariga Shimoldan ko'chmanchilar Qozoq va Jung'orlar hujumlari boshlandi. Ko'chmanchilarga qarshi jangda qatnashishga jasorat eta olmagan Nodir Muhammadxon dushmanga qarshi kurashga o'z o'g'li Abdulaziz boshchiligida qo'shinni jo'natadi. Bunday vaziyatda oliy hukmdordan norozi bo'lgan bir guruh amaldorlar 1645-yildanig aprelida Uchtepa atrofida Yangrisoy degan joyda Nodirmuhammadning katta o'g'li Abdulaziz sultonni xon deb e'lon qiladi. Ushbu vaziyatda kuchli siyosiy shaxslarga xos fikr yuritish va siyosiy bilimga deyarli ega bo'lmagan Nadr Muhammadning ikkunchi bir hatosi esa Eron va Hindistonga yordam so'rab qilgan murojati uning ulkan xatosi edi.

Muhokama va natijala; Nodir Muhammadxon ibn Din Muhammadxon ibn Jonibek Sulton(1592-taxminan 1651) ashtarxoniyarlardan bo'lgan Buxoro xoni. Ashtarxoniyalar chingiziylar avlodidan bo'lib bo'lib XV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxon (Hoji Tarxon)da hukronlik qilganlar . XVI asrning o'rtalaridan Astraxon Ivan Grozniy tomonidan bosib olingach, sulola hukmdori Yormuhammadxon sulton o'z yaqinlari bilan buxoroga keldi. Manba tili bilan aytganda:urus mashhur nasroniy bosqini dastidan (qochib) Yormuhammadxon farzandlari Jonimuhammad Sulton, Abbos sulton Tursun Muhammad Sulton, Pirmuhammad Sulton va ahli ayoli bilan Movorounnahrda keldi. 1601-yilda Buxoro zodagonlari Joni Muhammad Sulton (Jonibek) ni taxtga taklif qildilar. Lekin o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Siyiston hukmdori bo'lgan din Muhammad safaviylar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi va Boqi Muhammad (1601-16050 taxtga o'tqaziladi. Shundan keyin Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar (Joniyalar) sulolasi hukmronligi boshlanadi.

XVII asrning 30-yillaring oxirida Ashtarxoniyalar va Boburiylar o'rtasida munosabatlarning biroz ziddiyatlashganini (Hazorot va Kobul uchun) hamda tilga

olingan Rustam Sultonning Shibirg'on Andxud (1620), Yabag'u Chechaktu (1622) Maymana, Juzjon (1631) tomonlarga zug'umi Ashatrxoniylarning, asosan Nadir Muhammad sulton kuchlarining Bola Murg'ob, Hirot, Mashhad, atroflariga bir ikki yurishlarini hisobga olmaganda, Imomqulixon davrida Buxoro tashqi siyosatida keng ko'lamda va maqsadga muvofiq ravishda siyosiy-harbiy harakat qilganini ko'rmaymiz. Asosiy qo'shnilar Qozoq xonlari va Eron va Hindiston (Boburiylar) bilan ko'proq elchilik aloqalari olib borgon [1]. Imomqulixon xuddi shu yo'l bilan mamlakat tashqi xavfsizligini taminlashga intilgan. Aftidan xuddi shu hol unga ko'proq mamlakat ichki hayoti bilan mashg'ul bo'lish imkonini bergan.

Imomqulixon davrida mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik haqida o'sha zamon manbalarida yetarlicha ma'lumot bor. Chunonchi ularning birida shunday yozilgan: "Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi arz bilan kelganlarini qayatarmadi, uning zamonida na kambag'al na bechora qolmadi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlarga qattiq turdi, qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qurchi bilan bozorlar-u mahallalarni aylanib oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan boxabar bo'lib turdi. Buni xalq bilardi. Shuning uchun ham ham uning hukmronlik yillari mamlakatda biron marta ham isyon ko'tarilmadi [2].

Imomqulixon davridagi bunday osoyishtalik afsuski kiyingi oliy hukmdor Nodir Muhammadxon (1642-1645) hukronlik vaqtida ichki nizolar bilan almashdi. So'ngi yillarda ko'zi ojiz bo'lib qolgan Imomqulixon ukasi Nadir Muhammad sultonni Balxdan chaqirtirib taxtni unga topshiradi.

Boshqa bir qator Buxorolik Amirlar, amaldorlar Imomqulixonning ushbu qaroridan norozi ham bo'lganlar. Manba tili bilan aytganda, (Imomqulixon zamonida) davlatning oliymaqom ishlari va muhim mulkiy hamda moliyaviy tadbirlarini ijro qilib kelgan tabaqa [3] Nadir Muhammad Sultonning xonlik kursisiga o'tirishidan manfaatdor emasdi. Zero, shunday qilinganda mazkur guruh ilgari mavqei yo'qotishi turgan gap edi. Shu sababdan ham ojiz Imomqulixonning taxtda turgani, chamasi, ularga ko'proq, ma'qul bo'lgan, deb

gumon qilish mumkin. Ammo Imomqulixon o'z so'zini o'tkazadi. Bunda u ham o'sha Amir-u amaldorlarga, ham ukasiga nasihat, tushuntirish yo'li bilan ish tutadi.

Nadir Muhammadxon taxtga chiqqanidan so'ng mamlakat siyosiy doiralarida o'ziga nisbatan manfiy munosabat borligini bilgan holda ishni yirik amirlar va amaldorlarga kattadan-katta sovg'a-salom ulashishdan boshlaydi. Ularning ko'nglini olaman deb u, o'sha zamon tarixchisi mubolag'asi bilan aytganda, bor topgan-tutginini sarf qilib yuboradi. Shundan so'ng u qurgan tadbir mamlakat viloyatlarini taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan. Bu ham oson ish emasdi. Chamasi tilga olingan norozi guruh o'sha paytdayoq yangi xonning mulk taqsimlash jarayonida o'z manfaatini yo'qotishini bilgan. Zero, Imomqulixon davridagi mulk taqsimotida amirlar ishtiroki sezilarli edi. Masalan, Yalangtushbiy butun Garchiston viloyati, Abdurahmon otaliq Qunduz, O'rozbiy Termiz, Rahim parvonachi Qarshi kabilarni boshqarganlar.

Imomqulixonning bunday siyosatini shu bilan tushuntirish mumkinki, bir tomondan, bu bilan Imomqulixon yirik amirlarni o'z hokimiyatiga bog'lab manfaatdor qilib ko'yg'an, ikkinchi tomondan esa o'gli Rustam sultonning halokatidan (1612) so'ng ashtarxoniylar sulolasining hukmron bosh oilasidan faqat ikki kishi Imomqulixonning o'zi va ukasi Nadr Muhammad qolgandilar. Imomqulixonning boshqa o'g'illari yo ukalari yo'q edi. Ashtarxoniylarning boshqa oilalari, chunonchi, Imomqulixonning amakivachchalari ko'pchilikni tashkil qilmay, ularning mulk boshqaruvida faollashuvidan ko'p ham manfaatdor bo'linmagan chog'i. Zero, aks holda sulola ichida oliy taxt uchun da'vogarlar soni ko'payib ketishi hech narsa emasdi.

Nadir Muhammadxonning farzandlari serob bo'lgan. Odatga ko'ra, mulk taqsimotida oliy hukmdorning farzandlari-shahzodalar katta imtiyozga ega bo'lganlar. Chunki ular merosxo'r sifatida o'z ulushlariga ega bo'lishlari kerak edi, hatto balog'atga yetmagan bo'lsalar ham, boshqa tomondan, oliy hukmdor mamlakat boshqaruvida o'z farzandlariga suyanishga harakat qilgan. Shunday qilib Nadir Muhammadxon olti og'li, bir nabirasi, ikki jiyaniga mamlakatning

asosiy viloyatlarini taqsimlab beradi. Chunonchi, Abdulaziz Sultonga Samarqand, Xusrav Sultonga-Badaxshon bilan Qunduz, Bahrom Sultonga-Toshkent, Subxonquli Sultonga-Balx, Qutluq Muxammad Sultonga-Xisor, Abduraxmon Sultonga-Shibirg'on va Andxud, nabirasi Qosim Sultonga-Xuzor, jiyanlari Muhammadyor Sultonga-Shahrisabz, So'fi Sultonga-Toliqon tegadi.[4] Agar mazkur shahzodalarning Imomqulixon oliy hukmdorligi yillarida otalari Nadir Muhammadxon mulki-Balx viloyati doirasidagina faoliyat ko'rsatganliklari hisobga olinsa, Nadir Muhammadxonning Buxoroga o'tishi mamlakat mulklar (viloyatlar) boshqaruvidagi o'zgarishlar nechog'lik keskin bo'lganini ko'rsatadi.

Nadir Muhammadxonning taxtga chiqishidan norozi bo'lgan guruhlar oldindan bilganlar, albatta.

Har holda nima bo'lganda ham Nadir Muhammad oliy hukmdorlik kamarini beliga bog'laydi. Mulk taqsimoti, amir-u amaldorlarni saylash kabi ishlar bilan bir qatorda Eron, Hindiston hukmdorlari, qozoq va qoraqalpoq qavmlari elchilar yuborib, do'stlik va qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash niyatida ekanini bildiradi. Tez orada Xorazmdan ham xushxabar keladi. Isfandiyorxon (1623—1643) o'limidan so'ng uning o'g'illari otalari vasiyatiga ko'ra Urganchda Nadir Muhammadxon nomidan xutba o'qitib, Buxoro hokimiyatini tan olganlar. Bundan tashqari, elchi qo'yib Nadir Muhammadxondan o'z noiblarini yuborishini iltimos ham qilganlar. Iltimos bajariladi[5].

Xullas, ko'rinib turganidek, hukmronlikning boshlanishi Nadir Muhammadxon uchun silliq kechgan. Ammo tez orada mamlakatda vaziyat o'zgara boshlaydi. Chunonchi, Toshkent, Xo'jand viloyatlaridagi ko'chmanchi kuchlar beboshlik yo'liga kiradilar. Andijonga ham ko'chmanchi qirg'izlar hujum qila boshlaydi, qalmoqlar Toshkent, Turkiston (Yassi) tomonlarga tahdid soladilar. Bularning barini Nadir Muhammadxon bartaraf etadi.

Ammo eng asosiy xavf-mamlakat ichkarisida yirik amirlar tomonidan tug'ilgan xavfni yo'q qilishga uning kuchi yetmaydi. Bir necha marotaba tilga olingan norozi guruhlar 1645-yilning aprelida O'ratepa atrofidagi Yangisaroy (Saroyi nav) degan joyda Abdulaziz sultonni xon deb e'lon qiladilar. Vaholanki,

bu vaqtda Buxoroda Nadr Muhammadxon o'tirardi.

Xo'sh, bunday holat qanday sabab bilan yuzaga kelgandi ? Dastlabki ikki yil davomida oshig'i olchi kelib turgan Nadir Muhammadxon o'z hokimiyatini yanada mustahkamlash niyatida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'rin tutib kelgan amirlar mavqeini cheklash yo'liga o'tadi. Chunonchi, u mashhur Yalangto'shbiydan uning mulki bo'lmish Kahmerdni tortib oladi. Vaholangki, Yalangto'shbiy zamonasining eng qudratli siyosiy arboblardan bo'lib, harbiy va iqtisodiy jihatlardan xonlardan qolishmasdi. Manba tili bilan aytganda, «har yili unga Hindiston sarkorlari, Qandaxor va Xuroson xonlari, qirg'izlar, qozoqlar, qalmoqlar boshliqlari va Koshg'ar xoni nazr-u niyoz yuborib, u bilan yaxshi munosabatda bo'lishga intilganlar» [6]. Shunday qudratli shaxs bilan qarama-qarshilikka borishi nihoyatda qaltis ish bo'lgan. Bundan tashqari Nadir Muhammadxon davlat yumushlarida o'zining eski qadrdonlari Balxlik amirlarga suyana boshlaydi, ularga markaziy hokimiyatdan yuqori lavozimlar beradi. Masalan, Abdurahmonbiyni devonbegi darajasiga ko'taradi.

Nadir Muhammadxonning yana bir xatosi shundan iborat bo'lganki, to'ng'ich o'g'li, ya'ni otadan so'ng xonlikka da'vogar birinchi shaxsni, odatga ko'ra Balxga emas, Samarqandga tayinlaydi. Balxga esa avval boshqa farzandi — Subxonquli sultonni tayinlab, lekin tez orada unga Yalangto'shbiydan tortib olingan Kahmerdni beradi. Balx esa holi qoladi. Bu holatda, Nadr Muxammadxon Balxdagi hokimiyatni ham Buxoro bilan qo'shgan holda o'z ixtiyorida mujassamlashtirmoqchi bo'lgan degan xulosaga kelamiz. Xullas, hammasi bir bo'lib, fitna uyushtiriladi va poytaxtdan yiroqda, Balxga tayinlanmaganidan norozi bo'lib yurgan Abdulaziz sultonni xon deb e'lon qiladilar. Nadir Muhammadxon bundan xabar topib Balxga ko'chishga majbur bo'ladi [7].

Abdulazizxon (1645—1681) garchi oliy taxtni egallagani bilan hali mamlakat butunlay uning hukmi ostida birlashmagan edi. Balxda o'rnashib olgan Nadir Muxammadxon Buxoroga bo'ysunishni o'ylamasdi ham. Lekin Abdulazizxonning ham unga kuchi yetmasdi. Shu sababdan ham mamlakatning ko'zga ko'ringan xojalaridan Abdulg'afforxo'ja (Mahdumi A'zam Kosoniyning avlodlaridan),

Muxammad Sodiqxo'ja Jo'yboriy, Sanginxoja va boshqa mo'tabar shaxslar va ulamolar o'rtaga tushib Abdulazizxonning Buxoro, Nadir Muhammadxonning Balx bilan kifoyalanishlarini aytib, masalani hal qilganlar[8]. Garchi din peshvolarining mazkur aralashuvi mamlakat osoyishtaligidan kelib chiqib amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo mazkur hol, unga bir qator amirlarning, mahalliy hokimlarning Nadir Muhammadxon-oliy hukmdorga qarshi fitna uyushtirib o'z maqsadlariga erishganlarini qo'shsak, shuni ko'rsatadiki, markaziy hokimiyat va rasmiy sulola mavqei ancha tushib ketgan. Bu esa o'z o'rnida davlat asoslarini zaiflashtirishi turgan gap edi. Shu ma'noda Nadir Muhammadxon hukmronligi yillari davlatchiligimiz taraqqiyotida salbiy ahamiyat kasb etadi, desak yanglish bo'lmaydi. Ammo bir savol ustida o'ylamay iloj yo'q. Nima sababdan qirq yilga yaqin davr mobaynida mamlakatda poytaxtdan so'ng eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz hisoblanmish Balxni boshqargan Nadir Muhammadxon oliy taxtga o'tirgandan so'ng o'ziga ham, davlatga ham pand berib ko'ydi? Uning maqsadi nima edi, faqingina o'z mavqeini mustahkamlashni yo boshqa rejalari ham bor edimi? Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, u o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida harakat qilgan. Biroq, qaysi davlat arbobi, siyosatchi bunday qilmagan?! Bu tabiiy hol.

Biz esa fikrni boshqa tomonga qaratmoqchimiz. Balx viloyatiga hech kimni tayinlamay, uni ham poytaxt bilan ko'shib o'zi boshqarishga intilgan Nadir Muhammadxon shayboniylar, ayniqsa Abdullaxon II zamonidan taomilga kirib kelgan valiahdlik viloyatini yo'q qilish niyatida bo'lmaganmikan. Chunki valiahd qarorgohiga aylangan Balx viloyati ikki jihatdan markazni zaiflashtirib qo'yishi mumkin edi. Birinchidan, aytilganidek, bu yerda katta siyosiy va iqtisodiy qudrat mujassamlashgandi va unga suyangan holda har kim, xususan, valiahd mamlakatni boshboshdoqlik yo'lga boshlashi hech narsa emasdi. Ikkinchidan, ko'rilayotgan davrda Balx mamlakatning chekka, ya'ni doimiy raqiblar Eron va Hindiston bilan chegaradosh qismi sifatida, u yoki bu tomonga og'ishi, yo bo'lmasa alohidalikka intilishi bilan ulkan yaxlitligiga zavol bo'lishi mumkin edi (kelajakda shunday bo'ldi ham).

Nadir Muxammadxon, haqiqatan ham, biz uylaganchalik, uzoqni ko'ra biladigan siyosatchi bo'lgan bo'lsa, shular haqida o'ylab ish tutgani ehtimol. Ammo u bir nimada adashdi: ichki munosabatlarni o'rniga qo'ya olmadi. Imomqulixon davrida mavqeini ancha ko'tarib olgan yirik amirlar, mahalliy hokimlar tilini topolmadi.

Shunday qilib, 1645-yildan boshlab mamlakatda qo'shhokimiyatchilik hukmfarmo bo'lgan. Balxni boshqargan Nadir Muhammadxon oliy taxtni qaytarib olish ilinjida ko'ziga hech narsa ko'rinmay, yordam so'rab boburiylarga murojaat qiladi. Boburiylar esa paytdan foydalanib qo'shin tortib kelib ikki yil davomida(1646—1647) Balx va Badaxshonda hukmronlik qiladilar. Aldangan Nadir Muhammadxon Eronga yuzlanadi. Abdulazizxonga kelsak, 1646-yil boshida u Turkiston (Yassi) va Sayramga hujum qilgan qalmoqlarni bartaraf etish bilan mashg'ul bo'lib, faqat shu yil kuzidagina Buxoro qo'shini hamda qozoq va qoraqalpoq qavmlari lashkari bilan Badashxon va Balxga yo'l olgan. Manbalarda mazkur harbiy yurish, Abdulazizxonning shimoldan, Nadir Muhamadxonning g'arbdan Balx uchun boburiylarga qarshi kurashlari tafsilotlari keng berilgan. Bir so'z bilan aytganda, 1647-yil oktyabrda boburiylarning lashkari Balxni tark etishga majbur bo'ladi. Balx yana Nadir Muhammadxonga nasib etadi. Abdulazizxon esa Balxga oldinroq, kirgan Nadir Muhammadxonga qarshi biron chora ko'rolmay orqaga qaytib ketadi.[9].

Ko'rinib turganidek, Abdulazizxonning mavqei dastlabki yillarda aytarlik mustahkam bo'lmagan. Manbalarda hatto unga qarshi ikki marta fitna uyishtirilgani haqida guvohliklar ham bor. Chunonchi, Abdulazizxondan norozi bo'lgan guruhlar Buxoro taxtiga avval ashtarxoniylerden bo'lmish So'fi Sultonni, keyingi safar esa xonning ukasi Subxonquli sultonni o'tqazmoqchi bo'ladilar. Ikki safar ham fitna ochilib, So'fi sulton qatl qilinadi, Subxonquli sulton esa Balxga, otasi oldiga qochadi. Shu bahona u Balx viloyatida o'rnashib olib, 1651-yili Balx taxtni otasidan tortib ham oladi. O'z siyosatini mustahkam olib borolmagan va o'zi ishongan insonlardan pand yegan, davlat ishlaridan qo'lini yuvib xajga otlangan Nadir Muhammadxon shu yil yozning o'rtalarida Simnon (Eron) shaxrida

vafot etadi[10]

Xulosa. Biz obyektiv yoritishga intilayotgan Nodir Muhammad xon bo'lguniga qadar Balx hokimi bo'lib uzoq vaqt taxtni boshqara olmagan edi. ukasio Imomqulixonidan keyin taxtga chiqqanida esa mamlakatda yuritgan noto'g'ri siyosiy boshqaruvi oqibatida Ashtarxoniylar sulolasi tanazzulga yuz tutdi. Chunki xon davlat ishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydigan zodagonlar bilan yaqinlasha olmay, ular bilan til topisha olmadi. O'z hukmronligini mustahkamlash uchun yer mulklarini yaqinlariga sovg'a qilgan Nodir Muhammad mamlakatda yer mulk egaligi munosabatlarini izdan chiqardi. Shu tariqa Nodir Muhammad hukmronligi Ashtarxoniylar sulolasini tanazzul botqog'iga botirgan davr bo'ldi. Ushbu davrda nafaqat davlat siyosatida, hukmdorlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarda, tashqi siyosiy kuchlar bilan amalga oshirilgan noto'g'ri siyosat bilan birga eng achinarlisi Nodir Muhammad davrida davom etgan siyosiy parokandalik, urushlar va o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Bu o'z navbatida Buxoro xonligi aholisining turmush tarzi yomonlashuviga, hatto aholining boy tabaqalarining ham qashshoqlashuviga sabab bo'lagan.

Nodir Muhammad davrida boshboshdoqlik o'zaro kurashlar, mahalliy hokimlarning markazga bo'ysunmasligi davri bo'lib, siyosiy inqiroz beqarorlik taxminan yuz yil o'tib sulola inqirozi hamda davlatning uchga bo'linishi bilan tugadi. Tashqi aloqalar asosan qo'shni hududlar bilan cheklanib qolib mamlakat jahon texnikaviy taraqqiyotida ro'y berayotgan ko'pgina yangiliklardan chetda qoldi. Shunga qaramasdan madaniy hayotning ba'zi sohalarda (me'morchilik, tarixnavislik, adabiy muhit, islom huquqi) taraqqiyot jarayonlari kuzatiladi. Biroq bu sohalarda ham aytarli yangilik qilinmadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar.

1. Silsiloti as-salotin. 186 a-188a- varoqlar. "Муқимханская история" bet 86-87.

2. Silsiloti as-salotin. 1886-1896, 1896-1926, 194 a-196 a varoqlari; "Муқимханская история" bet 88-92; Shox Abbos "Majmuayi asnod va www.tadqiqotlar.uz

maktuboti torixi hamrohi yoddoshthoyi tafsiliy". Abdulhusayin Navoiy, Nashir-tehron 1367(H) I-III jildlar. Abdulhusayin Navoiy. "Мукимханская история" betlar 82-83

3. Silsiloti as-salotin. 199 b- varoq.

4. Silsiloti as-salotin. 204 ab, 209 b- varoqlari.

5. Silsiloti as-salotin. 205 a, 209 a- varoqlari.

6. Mahmud Ibin Vali. "Baxir al asror". India offis kutubxonasi. Raqami- 575. 290 b, 291 a varoqlari.

7. Silsiloti as-salotin. 210 a, 215 b, varoqlari; "Amali solih", II jild, betlar 362-363.

8. Silsilot as-salotin. 220 b- 221a varoqlari.

9. Silsilot as-salotin. 217a- 261b, varoqlari; Amali solix, II jild, betlar 383-442; III jild, betlar 2-14; "Мукимханская история" betlar 100-101

10. Silsilot as-salotin. 276 b, varoq.